



## OVOZ SOZLASH QOIDALARI VA AKADEMIK YO'NALISHDAGI OVOZLARNI AN'ANAVIY USLUBGA MUTANOSIBLASHTIRISH

**Suhrob Jumayev**

Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSS, "Maqom xonandaligi" kafedrası,  
ovozni yo'lga qo'yish fani o'qituvchisi  
E-mail id: [suhrobjumayev50@gmail.com](mailto:suhrobjumayev50@gmail.com)  
<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10037029>

### ARTICLE INFO

Received: 15<sup>th</sup> Oktober 2023  
Accepted: 23<sup>th</sup> Oktober 2023  
Online: 24<sup>th</sup> Oktober 2023

### KEY WORDS

Ovoz apparati, mutatsiya,  
tovush paychalari, registr,  
diafragma, artikulyatsiya,  
diapazon, uchuvchanlik,  
formant.

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada avvalo bugungi kunda yurtimizda an'anaviy xonandalik sohasi rivoji haqida aytib o'tiladi. Sohaning akademik xonandalikka ham tobora singgib borayotgan jihatlari ta'riflanadi. Ba'zi terminlarga ta'rif beriladi. Soha mutaxassislarining fikrlari iqtibos tarzida keltiriladi. Ta'lim jarayoni uchun tavsiya etiladigan maxsus ovoz mashqlari beriladi.*

So'nggi yillarda an'anaviy xonandalik sohasining ravnaqi uchun yaratilayotgan keng imkoniyatlar milliy ashulachiligimizga, ayniqsa, maqom xonandaligiga katta yutuqlar olib kelmoqda. Turli madaniy tadbirlar, atoqli ijrochilar nomidagi tanlovlar soha rivojiga sezilarli hissa qo'shdi. Yunus Rajabiy nomidagi "Yosh maqom ijrochilari", Ma'murjon Uzoqov nomidagi yosh ijrochilar respublika ko'rik-tanlovlari shular jumlasidandir. Shu bilan birga akademik xonandalik ta'limida ham aynan an'anaviy xonandalik talablariga mos keluvchi ijro maktabida kuylash tobora ommalashib bormoqda. Kompozitorlar tomonidan yaratilgan va yangi yaratilayotgan operalarda, romanslarda, umuman olganda vokal asarlarda maqom va xalq kuylari unsurlari borligi xonandadan ijroda yanada katta e'tibor talab etadi. Tavsiya sifatida akademik xonandalikda nafaqat ijro jarayoni, shu bilan birga ovoz mashqlari olib borish jarayoni ham an'anaviy xonandalikka monand tarzda tashkillashtirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Talaba bilan ishlash jarayonida avvalo ovoz apparati, mutatsiya va ijroda to'g'ri nafas haqida ma'lumotlar keltiriladi: "Ma'lumki, ovozning "rasta" bo'lishi deb ataladigan mazkur palla qizlarda, asosan, 13 yoshdan 15 yoshgacha, o'g'il bolalarda esa 15-18 yoshlar orasida ro'y beradi. Bu muddat ichida ovoz kuchsiz, bo'g'iq, ko'pincha, hatto butunlay jarangsiz holatga tushib qoladi. Ovoz ko'lami pasayadi, tusi esa, ayniqsa, o'g'il bolalarda, katta kishilarnikiga yaqinlashadi. Bu o'zgarishlar birdaniga emas, balki sekinlik bilan, yashirin holatda yuz beradi. Shu boisdan bola hiqildoq'ining betob holatini faqat tajribali o'qituvchi sezishi mumkin".<sup>1</sup> Hiqildoq nafas o'tuvchi tomoq bilan birga murakkab musiqiy cholg'uni tashkil etadi va odam nafas olganda havo tomoq, hiqildoqdan o'tib ularga ta'sir ko'rsatadi.

<sup>1</sup> Razzoqova M. Akademik xonandalik asoslariga kirish: O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2015. 4-5-betlar.



Tarang tovush paychalarining tebranishi natijasida tovush vujudga keladi. Talabaga nafas olish bilan birga tovushni to'g'ri va samarali jaranglatish usullari ham o'rgatiladi. Zaruriy ma'lumotlar berib o'tiladi: "Registr nomlari kuylovchining ma'lum sezish alomatlaridan kelib chiqqan. Masalan, birinchi registr tovushlari ko'krakdan keladi, shu boisdan "ko'krak registri", uchinchi esa boshga ta'sir etgani sababli "bosh registri" deb yuritiladi. Ammo bu nomlar asl mohiyatiga aytarli to'g'ri kelmaydi. Chunki tovush hiqildoqda paydo bo'ladi. Faqat quyi tovushlar sadosi ko'proq ko'krak bo'shlig'ida, ya'ni hiqildoqdan pastroqda joylashgan bo'shliqda, yuqori tovushlar esa hiqildoqdan yuqoriroqda joylashgan bo'shliqda seziladi.

Registr nomlariga kelsak, o'quvchilar chalg'imasligi uchun quyidagi tartibda belgilangan:

Birinchi registr – "ko'krak" registri;

Ikkinchi registr – "aralash" registri;

Uchinchi registr – "bosh" registr".<sup>2</sup>

Vokal texnikasida birinchi qilinadigan ish quyi qovurg'a – diafragma nafasni shakllantirishdan iborat. Kuylovchi ovoz mashqlarida, vokalizlar va musiqiy asarlarni kuylayotgan vaqtda nafas olish va chiqarishni hisobga olgan holda nafas tejash usullarini o'rganishi zarur. Diafragma nafasni shakllantirishning eng samarali usullaridan biri quyidagicha: "Ko'pincha quyidagi misol ko'p yordam beradi: "gul iforini butun ko'krakka sig'uncha nafas olish" usuli. Bu usul vokal pedagogikasining an'anaviy usullaridan biri sanaladi. Hattoki, oddiy ovoz mashqlari ham Yakkaxonandalik sinfi nafas ustida amalga oshiriladi. Xonandaning to'g'ri nafas olishi, dars davomida asarning badiiy jihatlarini, musiqiy frazalarning ifodaviyligi ustida ishlashga yaqindan yordam beradi".<sup>3</sup> Pedagog kuylash jarayonida talabaning nafas olishidan tashqari uni qanday chiqarayotganini ham nazorat ostiga olmog'i lozim. Chunki talaba ovozining og'irligi holatiga va qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Bu yuqori ovoqli ayollarga taalluqli.

Soha mutaxassislarining fikricha kuylash jarayonida artikulyatsiya (shu bilan hiqildoq holati) ahamiyati haqida quyidagicha fikr bildirishgan: "Jag'larni haddan tashqari ochish hiqildoqni qisib qo'yadi va bundan kelib chiqib ovoz tebranishini bostirib qo'yadi, ovoz apparatining rezonatsion gumbazini olib qo'yadi. Agar tishlar bir-biriga haddan tashqari yaqinlashtirilsa, ovoz tomoqdagi tovush tasavvuriga olib keladi. Agar lablarni varonkaga haddan ziyod cho'zilsa og'ir, vovullashga o'xshagan tovush kelib chiqadi. Agar og'zini oval shaklida (baliqdek) ochilsa – u ovozni bo'g'ib qo'yadi, unlilarni singitib yuboradi, artikulyatsiyaga halal berib va nihoyat yuz ifodasini qo'pol, xunuk qilib qo'yadi. Og'zingizni oval "O" shaklida oching, biroq pastki jag'ni yuqorisidan ajrating, u o'z og'irligi natijasida pastga tushishi lozim, lablar nim tabassumda bo'lsin. Bu harakat lablarni tishlarga yopishtiradi, og'izni to'g'ri shaklda ochishga ko'mak beradi, va bu unga yoqimli ko'rinish baxsh etadi".<sup>4</sup>

"Vokal texnik ko'nikmalarida xonanda nafasining qo'yilishi eng ma'suliyatli jihatlardan biridir. Shuning uchun ovoz mashqlarida nafas ustida ko'proq ishlash, tempning o'zgarishini, musiqiy frazalarni eng sekin tempda kuylash juda katta yordam beradi. Albatta, ta'lim

<sup>2</sup> Razzoqova M. Akademik xonandalik asoslariga kirish: O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2015. 10-bet.

<sup>3</sup> Mamikonyan T. Yakka xonandalik. – Toshkent: "Barkamol fayz media" nashriyoti, 2017. 5-bet.

<sup>4</sup> Mamikonyan T. Yakka xonandalik. – Toshkent: "Barkamol fayz media" nashriyoti, 2017. 24-bet. (Garsia M. "Kuylash maktabi")



jarayonida talabaning salomatligi, nerv sistemasining turg'unligi, mehnat va dam olishning me'yorlari muhim rol o'ynaydi. Boshqacha so'z bilan aytganda talabaning muvaffaqiyatli ta'lim olishida hamma narsa muhim ahamiyat kasb etadi".<sup>5</sup> Yakkaxonlar bilan ovoz ustida ishlashda ularning alohida o'zlariga xos jihatlari bo'ladi.

Ovoz diapazonini kengaytirishda shoshma-shosharlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi. Ovoz mashqlarini asarga mos keladigan emotsional holat bilan kuylash zarur. Bu talabaning musiqa shaklini tushinishiga katta yordam beradi.

"Endilikda lirik ashulaxonlik dramatik uslub bilan almashmoqda. Ovoz bu juda nozik nafosatli asbob, ovoz – bu nerv va mushaklar, ovoz – bu jonlik a'zo. Ovoz – bu qo'pol fiziologik a'zo emas, u artistlik hayajoni, ruhiy to'lqinlanish bilan bog'langandir. Agarda hofizning kayfiyati nohush bo'lsa, ovoz chiqarish a'zosi siqilib g'o'janak bo'ladi aksincha xursand kayfiyatda bo'lsa, ovozi yanada jarangdor bo'lib eshitiladi.

Xalq xonandalari inson ovozining mana shu xildagi nozik xususiyatlari haqida birorta nazariy yoki ilmiy asarlar yozmagan bo'lsalar-da, lekin ular o'zlarining ko'p yillik boy tajribalari, ustozlaridan olgan ta'limlari asosida bu xususiyatlarni chuqur bilardilar va o'z ijrochilik faoliyatlarini mana shu xususiyatlarga amal qilgan holda rivojlantirar va takomillashtirardilar".<sup>6</sup>

Nafas xonandalik faoliyati uchun o'ta muhim jihatlardan biridir. Nafasning quyi diafragma olinadigan turi ovoznin kuchli va zalvorli chiqishi uchun zamin yaratadi. Bunda tana holati ham tik, egilmagan holatda bo'lmog'i lozimdir. Bo'yin holati ham bunda tekis bo'lishi ovoznin ravon jaranglashiga yordam beradi. Yo'qsa xonandada ijro mobaynida noqulaylik kelib chiqadi. Asar ijrosi mobaynida ovoz apparatiga kiruvchi barcha organlar: o'pka, kekirdak, og'iz bo'shlig'i, tanglay, burun, tishlar va lablar birdek ishlashi lozim. Kuylash jarayonida ovozda uchuvchanlikni hosil qilish akademik xonandalikda ham, an'anaviy xonandalikda ham birdek muhim. "Uchuvchanlik. Ovozning uchuvchanlik sifati tembr va rezonanslik hissini ishlab chiqarish bilan bog'liq. Ovozda qoida tariqasida har xil intensivlikdagi bir nechta formantlar mavjud. Agar ovozning obertonlari energiyasi asosan 500 Gts ga yaqin past chastotali formantda to'plangan bo'lsa, u holda ovoz yumshoq, yumaloqdek qabul qilinadi. Agar ovoz "yuqori formant" (chastota 3000 Gts) deb atalganidek yetarli darajada ifodalansa, unda u metallikni va jarangdorlikni oladi. Aynan ushbu formanta bilan ovozning uchuvchanlik sifati bog'liqdir".<sup>7</sup>

Nafas masalasi borasida yana qo'shimcha ma'lumot: "Doktor Levidov o'zining Italiyada olgan kuylash mashg'ulotlari haqida: "Italiyada xonandalik o'qituvchilari maxsus nafas ishlab chiqarishga nisbatan befarq qaraydilar. Ta'limning boshida bir yoki ikkita dars davomida maestri o'quvchilarga nafasning u yoki bu asoslarni tushuntirib o'tadilar (bu asosan nafas apparatining anatomo-fiziologik tahlili jarayonida tushuntiriladi) keyinchalik esa o'quvchilar bilan nafas haqida deyarli suhbatlashmaydilar..."<sup>8</sup>

<sup>5</sup> Mamikonyan T. Yakka xonandalik. – Toshkent: "Barkamol fayz media" nashriyoti, 2017. 5-bet.

<sup>6</sup> Ахмедов М. Дони Зокиров. – Тошкент: Ибн Сино номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1995. 27-28-betlar.

<sup>7</sup> Смелкова Т.Д., Савельева Ю.В. Основы обучения вокальному искусству. – Санкт-Петербург, Москва, Краснодар: Издательство "ПЛАНЕТА МУЗЫКИ", издательство "ЛАНЬ", 2014. 16-bet. (Dissertant Suhrob Jumayev tarjimas)



<sup>8</sup> Mamikonyan T. Yakka xonandalik. – Toshkent: "Barkamol fayz media" nashriyoti, 2017. 23-bet.



Nafas masalasi xonandalikda o'ta muhimdir. Endilikda akademik xonandalikda nafas olish usulini rivojlantirish va ovoz jaranglatish ko'nikmalarini an'anaviy xonandalikda mavjud ohanglar yordamida o'zlashtirishga ko'mak beruvchi mashqlar keltiriladi.

## Ovoz sozlash mashqlari

1. Ushbu notada akademik xonandalik uchun an'anaviy xonandalik unsurlari asosida (bunda "bum-bak" doira usuli asos qilib olindi) ovoz mashqi keltiriladi. Cho'ziq legato bilan kuylash natijasida xonanda keng nafas ustida ishlaydi:





Ushbu ko'rinishda barcha mashqlarda yarim tondan ko'tarib borish va imkoniyat darajasiga yetganda (albatta xonanda xohishi bunda muhim) yana pastga harakat ta'minlanishi lozim.

2. "Yolg'iz" kuyi asosidagi mashq:

3. Quyidagi mashq esa mashhur "Toshkent Irog'i" asaridan olingan:

## References:

1. Razzoqova M. Akademik xonandalik asoslariga kirish: O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2015.
2. Mamikonyan T. Yakka xonandalik. – Toshkent: "Barkamol fayz media" nashriyoti, 2017.



3. Аҳмедов М. Дони Зокиров. – Тошкент: Ибн Сино номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1995.
4. Смелкова Т.Д., Савельева Ю.В. Основы обучения вокальному искусству. – Санкт-Петербург, Москва, Краснодар: Издательство “ПЛАНЕТА МУЗЫКИ”, издательство “ЛАНЬ”, 2014.